

Umurov Zarif Latifboyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DUAL TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni ilmiy jihatdan asoslangan. Unda ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllanishi hamda nazariya va amaliyot integratsiyasi tahlil qilingan. Kasbiy kompetentlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlar birligida yoritilgan hamda uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy mazmun bloklari aniqlashtirilgan. Dual ta'lim asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali mazmuniy yechimlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, kasbiy kompetentlik, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ta'lim mazmuni, kompetensiyaviy yondashuv, nazariya–amaliyot integratsiyasi, didaktik tizim, refleksiya, pedagogik faoliyat.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОДЕРЖАНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В УСЛОВИЯХ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье научно обосновано содержание развития профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов в условиях дуального образования. Проанализированы особенности формирования содержания образования на основе компетентностного подхода, а также интеграции теории и практики. Профессиональная компетентность раскрыта в единстве мотивационно-ценностного, когнитивного, деятельностно-практического, коммуникативного и рефлексивного компонентов, а также уточнены основные содержательные блоки, обеспечивающие её развитие. Разработаны эффективные содержательные решения по развитию профессиональной компетентности на основе дуального образования.

Ключевые слова: дуальное образование, профессиональная компетентность, учитель начальных классов, содержание образования, компетентностный подход, интеграция теории и практики, дидактическая система, рефлексия, педагогическая деятельность.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE CONTENT FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE CONDITIONS OF DUAL EDUCATION

Annotation. This article scientifically substantiates the content of developing professional competence of future primary school teachers in the context of dual education. It analyzes the formation of educational content based on the competency-based approach, as well as the integration of theory and practice. Professional competence is revealed through the unity of motivational-value, cognitive, activity-practical, communicative, and reflective components, and the main content blocks that ensure its development are specified. Effective content-based

76 *solutions for developing professional competence within the framework of dual education have been developed.*

Keywords: *dual education, professional competence, primary school teacher, educational content, competency-based approach, theory–practice integration, didactic system, reflection, pedagogical activity.*

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, dual ta'lim modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat o'qitish, balki tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot olib borish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi vazifalarni ham qamrab oladi. Shu bois dual ta'lim sharoitida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mazmunini ilmiy asoslash va uni tizimli yondashuv asosida takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim nazariyasida "mazmun" kategoriyasi didaktikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar tizimi, ko'nikma va malakalar majmuasi hamda shaxs sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlar mazmunini qamrab oladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta'lim mazmuni nafaqat fanlar doirasidagi nazariy bilimlar yig'indisi, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan integratsiyalashgan didaktik tizim sifatida talqin etiladi. Shu ma'noda, mazmun ta'lim jarayonining "nima o'rgatiladi?" degan savoliga javob beribgina qolmay, u qanday sharoitda, qaysi metod va vositalar orqali, qaysi natijani ko'zlagan holda amalga oshirilishini ham belgilab beradi.

Ta'lim mazmunini belgilash masalasi ayniqsa dual ta'lim sharoitida yanada dolzarb tus oladi, chunki dual ta'lim modeli o'z mohiyatiga ko'ra "nazariya–amaliyot" uyg'unligiga asoslangan bo'lib, unda o'quv jarayoni ikki muhitda – oliy ta'lim muassasasidagi akademik tayyorgarlik va real amaliyot bazasidagi kasbiy faoliyat jarayonida tashkil etiladi. Shu sababli dual ta'limda mazmunni belgilash oddiy o'quv reja yoki fan dasturlari chegarasida qolmaydi, aksincha, u bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan mazmun sifatida qayta loyihalanishi lozim bo'ladi. Bunda mazmun o'quv fanlari bo'yicha nazariy tushunchalar bilan cheklanmasdan, real pedagogik vaziyatlarda qo'llaniladigan metodik yechimlar, amaliy ko'nikmalar, muloqot madaniyati, diagnostik yondashuvlar hamda refleksiv faoliyat elementlari bilan boyitiladi.

Dual ta'lim sharoitida mazmunni belgilash zaruratining ilmiy-pedagogik asoslaridan biri shundan iboratki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u faqat nazariy tayyorgarlik bilan chegaralanmaydi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyati o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarni tarbiyalash, yosh va individual xususiyatlarni inobatga olish, sinfni boshqarish, ota-onalar bilan hamkorlik qilish, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini tahlil etish va baholash kabi bir qator professional vazifalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham dual ta'lim sharoitida mazmun bo'lajak o'qituvchining ana shu kasbiy vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirish tamoyiliga asoslangan holda aniqlanishi talab etiladi.

Mamlakatimizda dual ta'limni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ham ta'lim mazmunini yangicha yondashuv asosida belgilash zaruratini kuchaytiradi. Jumladan, pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida dual ta'lim shaklidan keng foydalanish, 3–4-bosqich talabalarining haftalik mashg'ulotlarini "4+2" shaklida tashkil etish, pedagogik amaliyot bilan nazariy tayyorgarlik o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish vazifalari amalda ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni, ya'ni nazariy fanlar mazmunini maktab amaliyoti bilan uyg'un holda loyihalashni taqozo etadi [2].

Shuningdek, oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda ta'lim jarayonini amaliyot bilan bog'lash, hamkor tashkilotlar bilan o'zaro mas'uliyatni

belgilash, ta'lim sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni yaratish kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu holat ham dual ta'lim sharoitida mazmunning kompetensiyaga yo'naltirilgan holda shakllantirilishi zarurligini tasdiqlaydi [1].

Xorijiy tajribalar ham dual ta'limda ta'lim mazmuni didaktik jihatdan muvofiqlashtirilmasa, nazariya va amaliyot o'rtasida uzilishlar yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, Germaniya modelida dual ta'lim tizimi rivojlangan bo'lsa-da, talabalar nazariy va amaliy qismlar mazmunini uyg'unligi yetarli darajada bo'lmagan holatlar mavjudligini qayd etgan. Bunday natijalar dual ta'limda mazmunni belgilashning markaziy masalasi sifatida o'quv mazmuni va amaliy faoliyat mazmuni o'rtasida didaktik uyg'unlik va nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga tatbiq etish mexanizmini ta'minlash zaruratini asoslaydi [3].

Demak, dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilash zarurati quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, dual ta'limda o'quv jarayonining ikki muhitda tashkil etilishi mazmunni integratsiyalashgan didaktik tizim sifatida loyihalashni taqozo etadi; ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatining ko'p qirrali vazifalari mazmunning kompetensiyaga yo'naltirilganligini talab qiladi; uchinchidan, davlat ta'lim siyosatida dual ta'limni "4+2" mexanizmi asosida joriy etish vazifalari mazmunni amaliyot bilan uyg'unlashtirish zaruratini kuchaytiradi; to'rtinchidan, xorijiy tajribalar dual ta'limda mazmunni muvofiqlashtirish va nazariya-amaliyot integratsiyasi didaktik tizimning asosiy sharti ekanligini tasdiqlaydi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasini ilmiy asoslashda, avvalo, "kasbiy kompetentlik" tushunchasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasini aniqlab olish zarur hisoblanadi. Kompetentlik ta'lim jarayonining yakuniy natijasi sifatida bo'lajak o'qituvchining nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki bu bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash, professional faoliyatni mustaqil tashkil etish, pedagogik muloqotni samarali olib borish va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli dual ta'lim sharoitida kompetentlik mazmuni alohida tizimli yondashuv asosida yoritilishi lozim.

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, malaka, tajriba hamda shaxsiy-professional sifatlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida qaraladi [4]. Mazkur yondashuvga ko'ra, kompetentlik bir vaqtning o'zida nazariy (bilim), amaliy (ko'nikma va malaka) hamda shaxsiy-psixologik (motivatsiya, qadriyat, refleksiya) komponentlar birligida shakllanadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talabi sifatida o'qituvchi tayyorgarligi "bilim berish" emas, balki "kasbiy vazifani bajarish"ga yo'naltirilgan natijalarni shakllantirish bilan ifodalanadi.

Dual ta'limning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda kasbiy kompetentlik komponentlari nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda amaliy pedagogik faoliyat jarayonida ham izchil shakllantiriladi. Bunday sharoitda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini tarkibiy jihatdan komponentli tuzilma asosida aniqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi quyidagi besh asosiy komponent asosida talqin qilinadi:

1) Motivatsion-qadriyatli komponent. Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji, kasbni ongli tanlashi, pedagogik faoliyatga ijobiy munosabati, kasbiy qadriyatlarga sodiqligi hamda o'z ustida ishlashga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Dual ta'lim sharoitida mazkur komponentning rivojlanishi ayniqsa muhim, chunki talaba real ta'lim muhitida (maktabda) dars jarayoniga kirishar ekan, u o'z kasbining ijtimoiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglaydi, kasbiy motivatsiyasi mustahkamlanadi hamda pedagogik faoliyatga nisbatan mas'uliyat hissi shakllanadi.

2) Kognitiv komponent. Kognitiv komponent bo'lajak o'qituvchining pedagogik bilimlari, didaktik tushunchalar, boshlang'ich ta'lim metodikasi, yosh va pedagogik-psixologiya asoslari, tarbiyaviy jarayon nazariyasi hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisining rivojlanish xususiyatlariga

oid ilmiy bilimlarni egallashi bilan belgilanadi. Dual ta'lim sharoitida kognitiv komponentning o'ziga xosligi shundaki, talaba nazariy bilimlarni amaliy jarayon bilan bog'laydi, ya'ni "o'qilgan bilim"ni "qo'llaniladigan bilim"ga aylantiradi. Bunda nazariy tayyorgarlikning mazmuni real pedagogik vaziyatlarga mos holda qayta tizimlashtiriladi, natijada bilimlarning funktsionalligi oshadi.

3) Faoliyat-amaliy komponent. Faoliyat-amaliy komponent bo'lajak o'qituvchining kasbiy vazifalarni bajarish malakasi va metodik ko'nikmalarini ifodalaydi. Jumladan, bu komponent darsni rejalashtirish va loyihalash, darsning turli bosqichlarini tashkil etish, interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchini faollashtirish, differensial yondashuvni qo'llash, sinfni boshqarish, baholash va nazoratni tashkil etish kabi amaliy harakatlar tizimi bilan tavsiflanadi. Dual ta'lim sharoitida aynan faoliyat-amaliy komponent asosiy natijaviy ko'rsatkich sifatida ko'zga tashlanadi, chunki amaliyot bazasidagi faoliyat jarayoni bo'lajak o'qituvchining professional tajribasini bosqichma-bosqich oshiradi. Shu ma'noda, dual ta'limning "4+2" shaklida tashkil etilishi amaliy kompetensiyalarni shakllantirishning intensiv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

4) Kommunikativ komponent. Kommunikativ komponent bo'lajak o'qituvchining pedagogik muloqot olib borish qobiliyati, o'quvchi bilan samarali munosabat o'rnatishi, ota-onalar bilan hamkorlik qilishi, jamoa bilan ishlashi, pedagogik etikani saqlashi hamda sinf ichidagi kommunikativ muhitni boshqarishi bilan ifodalanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida kommunikativ kompetensiya alohida ahamiyatga ega, chunki boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik xususiyatlari o'qituvchidan yumshoq yondashuv, tushuntirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga asoslangan pedagogik muloqotni talab qiladi. Dual ta'lim sharoitida kommunikativ komponent real sinf jarayonida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlar orqali bevosita shakllanadi, amaliyot rahbari esa bu jarayonni kuzatadi va tahlil qiladi.

5) Refleksiv komponent. Refleksiv komponent bo'lajak o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, pedagogik xatolarni baholash, o'z ustida ishlash va kasbiy o'sishni rejalashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Dual ta'lim sharoitida refleksiya jarayoni doimiy kuzatuv, monitoring, portfel yuritish, refleksiv kundalik, dars tahlili va metodik muhokamalar orqali mustahkamlanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadigan kompleks pedagogik hodisa hisoblanadi. Dual ta'lim esa mazkur komponentlarning har birini real pedagogik muhitda rivojlantirishga, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga va kompetentlikning barqaror shakllanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi didaktik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmunini aniqlash, uni didaktik jihatdan asoslash va amaliyotga tatbiq etish tadqiqotning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim mazmuni bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi qanday bilim, ko'nikma va malakalarga asoslanishini belgilaydi hamda kompetentlikni shakllantirishning real mexanizmlarini mazmuniy jihatdan ta'minlaydi. Dual ta'lim modeli nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslanganligi sababli mazkur mazmun bloklari bir tomondan OTMdagi nazariy tayyorgarlik, ikkinchi tomondan maktabdagi amaliy faoliyat jarayoni bilan integratsiyalashgan holda shakllantirilishi talab etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni integratsiyalashgan tuzilma sifatida bir necha mazmun bloklaridan tashkil topadi. Ushbu bloklar bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatiga xos vazifalar va kompetensiya komponentlari (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ, refleksiv) bilan uzviy uyg'unlikda aniqlanadi. Mazmun bloklarini belgilashda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik mezon bo'lib xizmat qiladi, ya'ni mazmun "mavzular yig'indisi" emas, balki bo'lajak o'qituvchining real kasbiy vazifalarni bajarishiga xizmat qiluvchi bilim, amaliy harakat va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

1-blok. Kasbiy-pedagogik (nazariy-didaktik) tayyorgarlik mazmuni. Ushbu blok bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishiga zamin yaratadi. Mazkur blok quyidagi mazmuniy yo'nalishlarni qamrab oladi: pedagogika va didaktika nazariyasi, ta'lim jarayoni qonuniyatlari, didaktik tamoyillar, boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari, ta'lim jarayonini loyihalashning nazariy asoslari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan o'qitishning metodologik talablari. Ushbu bilimlar bo'lajak o'qituvchida dars jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish va tashkil etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Dual ta'lim sharoitida ushbu blokning o'ziga xosligi shundaki, nazariy tayyorgarlik mazmuni maktabdagi real dars jarayoni bilan uzviy bog'liq holda o'zlashtiriladi va kasbiy vaziyatlar bilan boyitiladi. Ya'ni bo'lajak o'qituvchi nazariy tushunchalarni real sinf jarayonidagi pedagogik muammolarni tahlil qilish va hal etish orqali egallaydi. Bu esa nazariy bilimlarni "faol bilim"ga aylantiruvchi didaktik imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi.

2-blok. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va fanlarni o'qitish mazmuni. Kasbiy kompetentlikning asosiy mazmun bloklaridan biri boshlang'ich sinf fanlarini o'qitish metodikasini egallashdir. Ushbu blok bo'lajak o'qituvchining dars jarayonida metodik kompetensiyani shakllantirishini ta'minlaydi va quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, tabiatshunoslik, tarbiya, tasviriy san'at va boshqa fanlar bo'yicha o'qitish metodlari, dars turlari, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida topshiriqlarni loyihalash, interfaol metodlarni qo'llash hamda o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish.

Dual ta'lim sharoitida metodik tayyorgarlik maktab amaliyoti bilan uzviy bog'liq holda kuchayadi, chunki bo'lajak o'qituvchi nazariy metodikani real sinfda sinab ko'radi, dars o'tadi, kuzatadi va amaliyot rahbari bilan birgalikda tahlil qiladi. Shu tariqa metodik ko'nikmalar "nazariy model" emas, balki "amaliy kompetensiya" sifatida shakllanadi.

3-blok. Tarbiyaviy faoliyat va sinf rahbarligi mazmuni. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligi faqat o'qitish bilan cheklanmaydi, u tarbiyaviy faoliyat, ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarish va shaxs rivojiga ta'sir ko'rsatish vazifalarini ham qamrab oladi. Shu bois mazmunning muhim bloklaridan biri – tarbiyaviy faoliyat va sinf rahbarligi mazmunidir. Ushbu blok quyidagilarni o'z ichiga oladi: ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, sinf jamoasini shakllantirish, sinfdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish, maktab va oilaning hamkorligini yo'lga qo'yish, o'quvchilarda intizom, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni tarbiyalash.

Dual ta'lim sharoitida tarbiyaviy faoliyat mazmuni aynan amaliyot jarayonida samarali shakllanadi, chunki talaba real maktab muhitida tarbiyaviy jarayonni kuzatadi, sinf rahbari faoliyati bilan tanishadi hamda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etadi. Bu jarayon talabaning pedagogik pozitsiyasi va kasbiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

4-blok. Sinfni boshqarish, pedagogik diagnostika va baholash mazmuni. Kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi bo'lajak o'qituvchining sinfni boshqarish, o'quvchilarni nazorat qilish va baholash kompetensiyasidir. Ushbu blok boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, sinfdagi o'quv faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarni differensial yondashuv asosida o'qitish, pedagogik tashxis va monitoring olib borish, baholash mezonlarini qo'llash, natijalarni tahlil etish kabi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Dual ta'limda mazkur blokning asosiy ustunligi shundaki, bo'lajak o'qituvchi baholash va nazoratni real sinf jarayonida amalga oshiradi, kuzatuv varaqalari, portfel, test va topshiriqlar orqali o'quvchilar natijalarini tahlil qiladi.

Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini natijaviy tashkil etish, kompetentlikni diagnostika qilish hamda pedagogik qaror qabul qilishning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

5-blok. Pedagogik muloqot va hamkorlik kompetensiyasi mazmuni. Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot ta'lim natijadorligining muhim sharti bo'lib, o'qituvchidan yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyani talab qiladi. Mazkur mazmun bloki o'quvchi bilan samarali muloqot o'rnatish, sinfdagi pedagogik muhitni boshqarish, konfliktsiz muloqot madaniyatini shakllantirish, ota-onalar bilan hamkorlik, jamoa bilan ishlash,

80 maktab ma'muriyati va amaliyot rahbari bilan professional munosabatlarni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Dual ta'limning didaktik afzalligi shundaki, kommunikativ kompetensiya ham nazariy mashg'ulotlar bilan chegaralanmaydi, u real sinf muhitida "murakkab pedagogik vaziyatlar" orqali shakllanadi va amaliyotga rahbarlik qo'llab-quvvatlovi bilan mustahkamlanadi.

6-blok. Refleksiya, o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish mazmuni. Kasbiy kompetentlikning barqaror shakllanishi bo'lajak o'qituvchining refleksiv tahlil qila olishi, o'z faoliyatini baholashi va o'z ustida ishlashni davom ettira olishi bilan bog'liqdir. Shu bois mazmunning yakuniy va integrativ bloki sifatida refleksiya va kasbiy o'sish mazmuni ajratiladi. Bu blok o'z ichiga dars tahlili, refleksiv kundalik yuritish, portfel asosida o'zini baholash, kasbiy muammolarni aniqlash, metodik xatolar ustida ishlash va individual rivojlanish yo'l xaritasini tuzish kabi mazmuniy elementlarni oladi.

Yuqoridagi mazmun bloklari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning integratsiyalashgan didaktik asoslarini belgilab beradi. Dual ta'lim sharoitida mazkur mazmun bloklari "OTM–maktab–amaliyot rahbari" hamkorligi asosida, nazariya va amaliyot uyg'unligida hamda "4+2" mexanizmi doirasida izchil tashkil etilishi natijasida bo'lajak o'qituvchining kompetentligi kompleks rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni integratsiyalashgan didaktik tizim sifatida asoslanganligini ko'rsatdi. Kasbiy kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlari o'zaro uyg'unlikda shakllanishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, metodik faoliyat, tarbiyaviy jarayon, pedagogik diagnostika, muloqot va refleksiya kabi mazmun bloklari asosida tizimlashtirilgan. Dual ta'limning "nazariya–amaliyot" integratsiyasiga asoslanganligi esa mazkur mazmunni real pedagogik faoliyat bilan uyg'un holda amalga oshirish imkonini yaratdi. Dual ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi mazmuniy yondashuvlar ishlab chiqilgan va ularning amaliy ahamiyati asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom". <https://lex.uz/uz/docs/-7332601>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-7499721>

3. Krone S., Mill U. Dual studieren im Blick: Das ausbildungsintegrierende Studium aus der Perspektive der Studierenden // IAQ-Report. – Duisburg-Essen, 2012. – №03. – 17 s.

4. Muslimov N.A., Abdullayeva Q.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S., Karimova N.N., Qodirov M. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.

5. Hamroyev A.R., Adizov B.R. Pedagogik amaliyot va talaba faoliyati. "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent, 2006. 5-son. 67-69-betlar.

6. Weitz J., Ludwig-Mayerhofer W. Duale und schulische Berufsausbildungen in Deutschland: Schritte zu einem umfassenden Verständnis von beruflicher Bildung // Berliner Journal für Soziologie. – 2024. – Bd.34. – S. 339–375.